



Leibniz-Zentrum für
Agrarlandschaftsforschung
(ZALF) e.V.



INTI
International
University & Colleges

**HERIOT
WATT**
UNIVERSITY
UK | DUBAI | MALAYSIA

**BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI (BUXORO TABIIY
RESURSLARNI BOSHQARISH INSTITUTI) (O‘ZBEKISTON),**

**BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTINING
“QISHLOQ XO‘JALIGI VA OZIQ OVQAT” TASHKILOTI (FAO),**

GUMBOLT NOMIDAGI BERLIN UNIVERSITETI (GERMANIYA),

PRESOV UNIVERSITETI (SLOVAKIYA),

VALENSIYA POLITEXNIKA UNIVERSITETI (ISPANIYA),

**ZALF AGROTEXNOLOGIYALAR ILMIY TADQIQOT MARKAZI
(GERMANIYA),**

INTI XALQARO UNIVERSITETI (MALAYZIYA),

HERRIOT WATT UNIVERSITETI (MALAYZIYA)

**“YASHIL ENERGETIKA VA UNING QISHLOQ VA SUV XO‘JALIGIDAGI
O‘RNI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY VA ILMIY-TEXNIKAVIY
ANJUMANI**

MATERIALLAR TO‘PLAMI

29-30-aprel, 2025-yil

ISSN: 978-9910-10-082-6
UO‘K 556.182:551.5(08)
BBK 26.222+26.236
«DURDONA» Nashriyoti

“Yashil energetika va uning qishloq va suv xo‘jaligidagi o‘rni” mavzusidagi xalqaro ilmiy va ilmiy-texnikaviy anjumani materiallar to‘plami (2025-yil 29-30-aprel) -B.: Buxoro davlat texnika universiteti (Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti), 2025.

TAHRIR HAY’ATI RAISI:
Imomov Shavkat Jaxonovich –“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti rektori, texnika fanlari doktori, professor.
BOSH MUHARRIR:
Jo‘rayev Fazliddin O‘rinovich –“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, texnika fanlari doktori, professor.
MUHARRIR:
Axmedov Sharifboy Ro‘ziyevich –“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti “GTI va NS” kafedrasini mudiri, texnika fanlari nomzodi, professor v.b.
TAHRIRIYAT HAY’ATI A’ZOLARI:
Ibragimov Ilhom Ahrorovich -texnika fanlari doktori, dotsent
Jo‘rayev Umid Anvarovich -qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor.
Rajabov Yarash Jabborovich -texnika fanlari falsafa doktori, dotsent.
Laamarti Yuliya Aleksandrovna - sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent
Marasulov Abdirahim Mustafoevich - texnika fanlari doktori, professor.
Teshayev Muxsin Xudoyberdiyevich -fizika-matematika fanlari doktori, professor
Boltayev Zafar Ixtiyorovich - fizika-matematika fanlari doktori, professor
To‘xtayeva Habiba Toshevna -geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), v.b., professor.
Safarov Tolib Tojiyevich -tarix fanlari nomzodi, dotsent.
Boltayev San‘at Axmedovich -texnika fanlari nomzodi, dotsent.
Jamolov Farxod Norkulovich - texnika fanlari falsafa doktori, dotsent.
Barnayeva Muniraxon Abduraufovna - texnika fanlari falsafa doktori, dotsent.

To‘plamga kiritilgan tezislardagi ma’lumotlarning haqqoniyligi va iqtiboslarning tog‘riligiga mualliflar mas’uldir.

© Buxoro davlat texnika universiteti (Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti).
© Mualliflar
Elektron pochta manzili: buxtimi@mail.ru

3. R. Ergashev, J. Rashidov, B. Sarapov, B. Meliyev, B. Kholbutaev, G. Ergasheva "Enviromental aspekts of operation of irrigation pumping stations in the context of climate change". E3S Web of Conferences 410, 05007 (2023). <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202341005007>

4. Kutlimurodov, U. M., & Meliev, B. U. (2022). «Use of Urea-Formaldehyde Foam sorbents for Water and Soil Treatment from Petroleum Contaminants». European journal of innovation in nonformal education, 2(6), 238-242.

5. Sh.Musayev, U.Xolboyev, B.Meliyev "Use of additional opportunities to increase efficiency in the biogas plant", The Computing Science and Technologi International Jornal. Vol. 12. Issue 3. April, 2023 y.

6. Germanova T. V., Meliyev B.U. "Ishlab chiqarish korxonalarida resurslarni tejash yo'llari". Экономика и социум, 3-1 (118), (2024), стр. 169-174.

7. Б.У.Мелиев, У. Кутлимуродов, "Очистка поверхностных вод от органических примесей, модернизированной электрохимической технологией". "Ishlab chiqarishning texnik, muhandislik va texnologik muammolari va innovatsion yechimlari". Xalqaro miqyosdagi ilmiy - texnik anjuman. Jizzax. JizPI. 1-qism. 2021 yil.

8. Meliyev B.O'. Abdusattorov S. Suv havzalarini neft mahsulotlaridan tozalashning ahamiyati va usullari. "Me'morchilik va qurilish muammolari", ilmiy-texnik jurnal. Samarqand sh. SamDAQU. 2023 yil, № 4.

SUV RESURLARIDAN FOYDALANISHI TARTIBGA SOLISHDA SOLIQ MEXANIZMLARINING O'RNI

Sodiq Boymurotov

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Soliq va soliqqa tortish
kafedrasi dotsenti E-mail: boymurotov.sodik@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizda suv resurslaridan foydalanishning amaldagi holati va undan tejab-tergab samarali foydalanish bo'yicha belgilangan tadbirlar hamda ularning natijadorligi tahlil qilinib, suv resurslaridan unumli foydalanishda soliq mexanizmlarini qo'llashning ahamiyati o'rganilib, kelgusida suvdan samarali foydalanish bo'yicha amalga oshirilishi zurrur bo'lgan taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: suv resurslari, suvdan samarali foydalanish usullari, yer osti suvlari, yer usti suvlari, suv xavzalari, sug'oriladigan yerlar, suv ta'minoti suv nasos stansiyalari aqlli suv o'lchash va nazorat qilish qurilmalari, dayver qurilmalari, suvni boshqaruvini avtomatlashtirish, tomchilab sug'orish texnologiyasi suv miqdorini onlayn monitoring qiluvchi qurilmalar.

Annotatsiya: Dannom state analiziruetsya sovremennoe sostoyanie ispolzovaniya vodных resursov v nashey strane i меры установленные для эффективного ispolzovaniya vodных resursov i ix effektivnosti, izuchaetsya znachenie ispolzovaniya nalogovых mexanizmov v effektivnom ispolzovanii vodных resursov, a takje neobxodimost dlya ix realizatsii v dalneyshem dlya effektivного ispolzovaniya vody dayutsya predlojeniya i rekomendatsii.

Ключевые слова: водные ресурсы, методы эффективного использования воды, подземные воды, поверхностные воды, водные бассейны, орошаемые земли, водоснабжение, водонасосные станции, интеллектуальные устройства измерения и контроля воды, водолазные устройства, автоматизация водного хозяйства, устройства технологии капельного орошения. которые следят за количеством воды онлайн.

Annotatsiya: In this article, the current state of water resources use in our country and the measures set for efficient use of water resources and their effectiveness are analyzed, the importance of using tax mechanisms in the efficient use of water resources is studied, and it is necessary to implement them in the future for efficient use of water. suggestions and recommendations are given.

Key words: water resources, methods of efficient use of water, underground water, surface water, water basins, irrigated land, water supply, water pumping stations, smart water measurement and control devices, diver devices, water management automation , drip irrigation technology devices that monitor the amount of water online.

Kirish. Dunyo bo'yicha haroratning isishi, iqlim o'zgarishi va boshqa omillar ta'sirida bizning mintaqamizda ham suv resurslarining yildan yilga taqchilligi sezila boshladi. Xususan, respublikamiz iqtisodiy-geografik o'rni jihatidan O'rta Osiyoning markazida joylashganligi uning iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda suv resurslari alohida ahamiyatga ega bo'lib, tarixiy manbalarning darak berishicha, qadimdan mamlakatimiz hududida suv hayot manbai sifatida qadrlangan, unga xo'jalik yuritishning eng asosiy omillaridan biri sifatida e'tibor berilgan.

Adabiyotlar sharhi. Suv resurlaridan samarali foydalanishda, xududning suv resurslari salohiyati bilan belgilanadigan ulardan okilona foydalanish imkoniyatlari, foydalanuvchilarning xususiyatlari va funksional tuzilishi va undagi mavjud muammolar taniqli rus iqtisodchi olimlari Avakyan A.B., Balatskiy O.F., Belichenko Yu.P., Gareev A.M., I.A. Shiklomanovlar tomonidan o'rganilgan.

Shuningdek, suvdan foydalanishda iqtisodiy munosabatlarni shakllantirish masalalari va suvdan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish yo'llari Aliev E.D., Belyaev S.D., A.D. Vyvartslar tadqiqotlarida keltirilgan.

O'z navbatida, suv resurslarining iqtisodiy ahamiyati va undan tejab-tergab samarali foydalanish masalalari mamlakatimiz iqtisodchi olimlari A.A.Abdug'aniev, A.S. Sultonov, Z.Ya. Xudoyberganov, S.A. Qo'chqorova, I.L. Abduraximov, G'.Safarov, D.Qurbonovlarning ilmiy izlanishlarida tadqiq etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada qiyosiy tahlil hamda indukciya va dedukciya baholash usullaridan foydalanildi. Qiyosiy usuldan foydalanilib, mamlakatimizda suv resurslaridan samarali foydalanishda iste'mol qilingan suv hajmi va undan undirilgan soliq tushumlari hamda ularning samaradorlik larajalariga doir ma'lumotlar va ularni tahlillari amalga oshirilib, ilmiy xulosalar berildi.

Tahlil natijalari. Suv xayot uchun asosiy, tabiiy boyliklardan biri bo'lib, u sog'lik va xayotni saklab qolish uchun zarurligi bilan birga, oziq-ovqat ishlab chikarish va boshqa iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish uchun ham muhimdir.

Hozirgi kunda ham mamlakatimiz iqtisodiyoti taraqqiyotini ayniqsa, uning qishloq xo'jaligi ishlab chikarishini suvsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Chunki, O'zbekistonning qishloq xo'jaligi ishlab chikarishi bevosita suv resurslari bilan uzviy bog'liqdir. Birok, ijtimoiy iqtisodiyotning jadal o'sishi va urbanizatsiya jarayonlarining tezlashishi bilan mintakaviy suv resurslari balansi muammosi tobora muxim ahamiyat kasb etmokda. Buni quyidagi jadval ma'lumotlaridan ham kuzatish mumkin.

1-jadval

***O'zbekiston Respublikasi bo'yicha 2014-2024 yillarda amalda
olingan suv miqdori to'g'risida ma'lumot (km³)¹***

t/r	Yillar	Jami	Shu jumladan			
			Daryo o'zanlaridan	Ichki soy va daryolardan	Yer osti suvlaridan	Sanoat, kommunal va texnik ehtiyojlarga
1.	2014	51794	32133	17849	476	1335
2.	2015	55138	33924	19087	539	1589
3.	2016	54556	32465	19810	553	1727
4.	2017	58943	36804	20101	495	1519
5.	2018	51003	31911	17531	481	1080
6.	2019	53976	33698	18756	471	1052
7.	2020	51217	31174	18301	480	1263
8.	2021	43662	27174	14794	516	1177
9.	2022	44488	29629	12622	597	1640
10.	2023	45962	30764	12815	556	1826
11.	2024	45281	30963	12309	524	1485

Jadval ma'lumotlaridan o'tgan o'n yil davomida mamlakatimiz hududiga kirib kelgan suv hajmi 6513 (51794-45281) km³ga kamayib ketganligini kuzatish mumkin. Bu kamayish asosan, mamlakatimizdagi ichki soy va daryolardan olinadigan suvda 5540 (17849-12309) km³ ga, yoki 85 foizga, daryo o'zanlaridan 1170 (32133- 30963) km³ yoki 18 foizga suv olinishi kamaygan. O'z navbatida, yer osti suvlaridan foydalanish 48(524-476) km³ga, sanoat, kommunal va texnik ehtiyojlarga olinadigan suv hajmi 150 (1485-1335) km³ ga oshganligini ham ta'kidlash lozim.

Shu bois, so'nggi yillarda mamlakatimizda suv resurslaridan samarali foydalanish, ularni boshqarish tizimini takomillashtirish, suv xo'jaligi ob'ektlarini modernizatsiya qilish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Suvdan samarali foydalanishni ta'minlashning asosiy shartlaridan biri suvdan foydalanganlik uchun xak to'lash bo'lib, bu orkali suvni muxofaza kilish va uni kayta ishlash tadbirlarini amalga oshirish uchun mablag'lar safarbar kilinadi xamda suv resurslaridan okilona foydalanish rag'batlantiriladi.

O'z navbatida, suv resurrlaridan samarali foydalanishni tartibga solish, uni tejab-tergab foydalnayotgan tadbirkorlik sub'ektlarini davlat tomonidan qo'llab – quvvatlash maqsadida, suvdan tadbirkorlik maqsadida foydalanuvchilar uchun “Suv resurslaridan foydalanganlik uchun solig'i” joriy qilingan.

Malakatimiz soliq qonunchiligiga binoan, bugungi kunda “xududida suvdan foydalanishni yoki suvni iste'mol kilishni amalga oshiruvchi “barcha yuridik shaxslar, shuningdek faoliyatini doimiy muassasalar orkali amalga oshirayotgan norezident yuridik shaxslar, suvdan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar, dehqon xo'jaliklari suv resurslaridan foydalanganlik uchun solikni to'lovchilar” deb e'tirof etiladi.

2- jadval

Ko'rsatkichlar	Yillar					
	2018	2019	1920	2021	2022	2023
Jami soliq to'lovchilar	377,4	412,5	448,8	489,4	541,5	542,5
2018 yilga nisbatan o'sish ko'rsatkichi (%)	100	109,6	126,8	136,8	132,9	143,3
Shundan, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchilar	3443	56024	57828	137020	147586	156467
2018 yilga nisbatan o'sish ko'rsatkichi (%)	100	162,7	168,0	397,9	428,6	454,4
Shundan, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilar jami soliq to'lovchilarga nisbati	0,09	13,6	12,9	28,0	27,3	28,8

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchilar dinamikasi to'g'risida²¹

Jadval ma'lumotlaridan tahlil qilinayotgan 2018-2023 yillarda soliq to'lovchilar soni 43,3 foizga o'sgan bir paytda, aynan shu davrda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchilar soni to'rt yuz yarim barobarga o'sganligi, ya'ni 2018 yildagi 3443 tadan 156467 taga yetganligini va 2024 yil boshiga jami soliq to'lovchilarning 28,8 foizini tashkid etganligini ko'rishimiz mumkin.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchilar sonining keskin oshib borishi o'z navbatida ular tomonidan budjetga tushadigan soliqlar miqdoriga ham keskin ta'sir etmoqda.

¹ Jadval Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

3- jadval

t/r	Yillar	YaIMga nisbatan budjetga solik tushumi				Shu jumladan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	
		YaIM	YaIM o'sish dinamikasi foizda	Solik tushumi	Soliq tushumi o'sish dinamikasi foizda	summa	Suv solig'i o'sish dinamikasi budjet tushumiga nisbatan foizda
	2014	144868,0	100	31 730,6	100	114,7	100
	2015	171808,3	115,6	36 493,3	115,0	158,4	138,1
	2016	255421,8	176,3	41043,4	129,3	162,5	141,7
	2017	317476,3	219,1	49 681,0	156,6	171,8	149,8
	2018	424728,7	293,2	79 099,1	249,3	128,4	112,0
	2019	529391,3	365,4	112 165,4	353,5	314,5	274,2
	2020	602551,3	416,0	132 938,1	419,0	478,8	417,4
	2021	734587,7	507,0	164 799,4	519,4	684,4	596,7
	2022	888341,7	613,2	202 042,9	636,7	704,1	613,9
	2023	1066569	736,2	231 721,3	730,3	791,4	690,0
	2024	1301758,8	898,6	270 703,1	852,1	1 261,1	1099,5

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq tushumlari dinamikasi³

Ushbu tahliliy ma'lumotlaridan o'tgan o'n yil (2014-2024) mobaynida mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy o'sish ko'rsatkichi (YaIM) deyarlik to'qqiz (9) barbarga, davlat budjetiga soliqlar va boshqa yig'imlar tushumi miqdori sakkiz yarim (8,5) barobarga o'sgan bir paytda, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq miqdori (11,0) o'n bir barobarga o'sganligini ko'rish mumkin.

Bu holat respublikamizda suv resurslaridan samarali va oqilona foydalanishni soliqlar vositasida tartibga solish borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar to'g'ri belgilanayotganidan dalolat beradi.

Jumladan, Prezidentining 2024 yil 5 yanvardagi «Quyida bo'lg'anda suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» qarori bilan, 2025 yildan boshlab, amaldagi belgilangan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga, suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalari joriy qilinganda hamda sug'orish uchun olingan suv hajmi suv o'lchash uskunalari asosida aniqlanganda – 0,5 kamaytiruvchi koeffitsient qo'llanilash;

suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalari joriy qilinganda yoki sug'orish uchun olingan suv hajmi suv o'lchash uskunalari asosida aniqlanganda – 0,7 kamaytiruvchi koeffitsient qo'llanilash;

baliqchilik uchun olingan suv hajmi suv o'lchash uskunalari asosida aniqlanganda – 0,7 kamaytiruvchi koeffitsient qo'llanilash;

suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalari joriy qilinmaganda hamda sug'orish uchun olingan suv hajmi suv o'lchash uskunalari asosida aniqlanmaganda – 1,1 oshiruvchi koeffitsient qo'llanilash tartibdalari belgilandi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasining tegishli ko'rsatmasi bilan mahalliy davlat hokimiyati organlariga qo'shimcha vakolatlar berilishi munosabati bilan, Xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari soliq stavkasiga 0,7 gacha kamaytiruvchi yoki 1,5 gacha oshiruvchi koeffitsientlarni belgilash huquqi berildi.

Yuqorirda belgilangan tadbirlardan kelib chiqib, respublikamizda suvni tejar-tergab foydalanishda quyidagilar tavsiya qilinadi

- Suv resurslaridan tejab-tergab, samarali foydalanishni yo'lga qo'yishda asosiy e'tiborni sohani raqamlashtirishga qaratish lozim va bunda, asosiy e'tiborn, nasos stantsiyalariga "onlayn" nazorat qurilmalari va "aqlli suv" qurilmalaridan olinadigan ma'lumotlarni jamlab, tahlil qiladigan yagona axborot tizimini joriy etish, suv xo'jaligi vazirligi yagona raqamlashtirish markazini tashkil etish suv iste'moli va uni hisobini yoritishning yagona axborot tizimini yo'lga qo'yish, yagona axborot markazini tegishli mutasaddi vazirlik va idoralarning axborot resurs markazlari ma'lumotlar bazalari bilan integratsiya qilish zarur bo'ladi.

- Kanallar va ichki ariqlar orqali suv ta'minotidagi katta yo'qotishlarni bartaraf etish maqsadida, magistral kanal qurilish ishlarini jadallashtirish va har bir kanalga mutasaddi ta'lim tashkilotlari bilan "dual ta'lim" asosida betonlash tugaguncha bo'lgan barcha jara'nlarni ilmiy endashuv asosida amalga oshirilishini tashkil etish.

- Suv taqsimlanadigan nuqtalarga suv hisoblagich va video kuzatuv moslamalarini o'rnatilib, kimga qancha suv taqsimlanishining avtomatlashtirilgan tizimini tashkil etish.

- Suv ta'minoti bo'yicha limit belgilash tartiblarini qayta ko'rib chiqib, belgilangan limitdan ortiqcha sarflangan suv resurslari uchun moliyaviy javobgarlik choralarini kuchaytirish.

- Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan erlarni sug'orishda suvni tejaydigan zamonaviy texnologiyalarini qo'llaydigan xo'jaliklarga soliq imtiyozlarini qo'llash tartiblarini kengaytirish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami 2020 yil.

2. O'zbekiston Respublikasining "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi qonuni. Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishga doir qonun va me'yoriy hujjatlar to'plami. 1-qism. –T.: Sharq, 1998.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 22 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli farmoni.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi farmoni.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 iyuldagi PF-6024-son "O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni.